

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34*

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI..... 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI..... 103-107*

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QAROR,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110*

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI

Aripjanova Dinora

Mustaqil tadqiqotchi, Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

E-mail: aripjanovadinora959@gmail.com

Tel: +998 90 959 67 67

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarini raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishda motivatsiya mexanizmlarining samarali modeli taklif etiladi. Tadqiqot doirasida Toshkent shahridagi davlat va nodavlat MTT rahbarlari o'tkasida o'tkazilgan so'rov nomasi natijalari asosida, mavjud motivatsion muammolar statistik asosda ochib berildi. Shuningdek, ichki motivatsiya omillari - kasbiy faxr, jamoaviy ishonch va bolalar muvaffaqiyatining ustuvorligi aniqlanib, Self-Determination Theory nazariyasi bilan uyg'unlashtirilgan model taklif qilindi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lif, rahbar, ichki va tashqi motivatsiya, kasbiy rivojlanish, raqobatbardoshlik, ta'lif boshqaruvi.

EFFECTIVE MODEL OF MOTIVATION MECHANISMS IN THE FORMATION OF A COMPETITIVE LEADER'S PERSONALITY

Dinora Aripjanova

Independent Researcher of the Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Educational Organizations

Annotation. This article proposes an effective model of motivational mechanisms for the formation of preschool educational organization leaders as competitive individuals. Within the framework of the study, based on the results of a survey conducted among the heads of state and non-state preschool educational organizations of the city of Tashkent, existing motivational problems were revealed on a statistical basis. Also, the factors of internal motivation - professional pride, team confidence, and the priority of children's success - were identified, and a model harmonized with the theory of self-determination theory was proposed.

Key words: Preschool education, leader, internal and external motivation, professional development, competitiveness, education management.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif tizimi islohotlari izchil davom etar ekan, ushbu sohaga rahbarlik qilayotgan kadrlar malakasi, ularning kasbiy motivatsiyasi va rahbarlik kompetensiyalarining rivojlanishi dolzarb muammo sifatida qaralmoqqa. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lif sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi PF-152-sonli Farmonida rahbar kadrlarni zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari asosida tayyorlash va ularni motivatsion jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasi belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida maktabgacha ta'lif tizimida inson kapitalini rivojlantirishning muhimligi ta'kidlangan bo'lib, rahbarlarning

motivatsiyasini oshirish bu strategyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2]. Maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbarining raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishi nafaqat ta'lif sifatiga, balki yosh avlodning intellektual va psixologik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, rahbarlar faoliyatining samaradorligini oshirishda motivatsion mexanizmlar asosida ishlab chiqilgan modelga ehtiyoj sezilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish uchun nazariy (tahliliy-sinergetik, qiyosiy taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishslash, natijalarni grafik tasvirlash) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning miqdoriy qismida Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 53 ta davlat va 45 ta nodavlat MTT rahbarlari o'rtasida motivatsion omillar bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. Shuningdek, mavjud ilmiy va amaliy manbalar asosida samarali motivatsion model taklif etildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbarlari faoliyatida ichki motivatsiya omillarining ustuvorligini ko'rsatmoqda. Jumladan, rahbarlar tomonidan kasbiy faxr, jamoaning ishonchi va bolalarning muvaffaqiyati ularni faoliyatga undovchi asosiy ichki omillar sifatida e'tirof etildi. Aksincha, tashqi motivatsion vositalar, jumladan maosh miqdori, lavozim ko'tarilishi yoki moddiy rag'batlantirish, qisqa muddatli samaraga ega bo'lib, ularning ichki islohotlarga bo'lgan intilishlariga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida samarali rahbarlikni ta'minlashda motivatsiya modelining asosiy komponentlari quyidagilar ekani aniqlandi: 1) rahbarlar uchun muntazam kasbiy treninglar tashkil etilishi; 2) ish samaradorligiga asoslangan ochiq va shaffof baholash tizimi joriy etilishi; 3) differensial (ya'ni natijaga qarab farqlangan) rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, bu rag'batlantirish moddiy hamda nomoddiy vositalarni o'z ichiga olishi lozim; 4) rahbarlarda emotsiyal intelleykt va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish; 5) ijtimoiy ishonch va rahbar maqomini oshiruvchi omillarni faollashtirish zarur.

Biroq mavjud tizimda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 72 foizi rag'batlantirish tizimining noaniqligi va obyektiv emasligini tan olgan. Bundan tashqari, 61 foiz rahbarlar kasbiy rivojlanishga doir malaka oshirish kurslari yetarli emasligini bildirganlar. Bu esa, motivatsiya tizimini takomillashtirishni muhim va kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari suradi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, samarali motivatsiya modelini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Bunday model quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- har bir rahbar uchun individual motivatsion profil ishlab chiqiladi;
- ushbu profil asosida shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi;
- har chorakda erishilgan aniq natijalar asosida rag'batlantirish choralarini belgilanadi;
- ichki (e'tirof, mustaqillik, o'z-o'zini anglash) va tashqi (moddiy rag'bat, ijtimoiy maqom) motivatorlar o'rtasida muvozanatli yondashuv qo'llaniladi.

Shunday qilib, motivatsion yondashuvni tizimli tarzda yo'lga qo'yish nafaqat rahbarning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki butun tashkilot faoliyatiga, xususan bolalar ta'lifi va tarbiyasiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Munozara. O'zbekiston tajribasi xorijiy amaliyot bilan qiyoslanganda, Finlyandiya va Singapurda maktabgacha ta'lif rahbarlariga nisbatan yuqori kasbiy ishonch va avtonomiya berilishi ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirganini ko'rish mumkin [3]. L.Deci va R.Ryan ilgari surgan Self-Determination Theory (O'z-o'zini anglash nazariyasi) ga ko'ra, rahbar shaxsning ichki ehtiyojlari – mustaqillik, yetuklik va tegishlilik – qondirilganda motivatsiya yuqori bo'ladi [4]. Tadqiqot natijalari bu nazariyani tasdiqlaydi. Shuningdek, T.Sekacheva fikricha, rahbarning ijtimoiy maqomi va jamoa tomonidan tan olinish darjasini motivatsiyaning barqarorligini belgilovchi muhim omillardandir [5]. Bu jihatlar ham biz taklif qilgan modelda inobatga olingan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbarining raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishida motivatsiya mexanizmlarini ilmiy asosda shakllantirish zarur. Taklif etilgan samarali model orqali:rahbarlarning kasbiy rivoji tizimlashtiriladi; faoliyat natijalari asosida obyektiv baholash va rag'batlantirish amalgamoshiriladi; ichki va tashqi motivatsion vositalar muvozanatli qo'llanadi; sifatli ta'lif muhitini boshqarish ko'nikmalari kuchayadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lif sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi PF-152-sonli Farmoni. <https://lex.uz/acts/-7128182>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01/29/60/0087.
3. Sahlberg P. Finnish lessons 3.0: What can the World Learn from Educational Change in Finland?. – Teachers College Press, 2021.
4. Deci E. L., Ryan R. M. The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior //Psychological inquiry. – 2000. – Т. 11. – №. 4. – Р. 227-268.
5. Секачева Т. В. Мотивация персонала как фактор повышения эффективности управления //Вестник АКСОП. – 2010. – №. 3. – С. 219-224.
6. Atamuratov R.K. Internet olamining yoshlar mafkuraviy immunitetiga ta'siri/Bolalarning ma'nnaviy va jismoniy rivojlanishida axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzARB masalalari. Toshkent. 12.04.2017. – B. 136-139.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.